



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2023- yil 1- may holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2023-yil 1-may holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 22 839 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 20 530 ta). O‘tgan yilning mos davriga nisbatan faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 97,1 foizni (jumladan, kichik korxonalar va mikrofirmalar 96,7 foiz) tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar

fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-may holatiga ko‘ra, birlikda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan


Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil yanvar-aprel oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda 56 taga kamayganligini ko‘rish mumkin.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha 2019- yilning mos davri bilan solishtirilganda, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar 126 taga ko‘paygan, xususiy korxonalar 129 taga ko‘paygan.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	255	86,7 %	Uchquduq t.	108	85,7 %
Karmana t.	217	94,3 %	Nurota t.	99	98,0 %
Qiziltepa t.	192	87,7 %	Konimex t.	86	128,4 %
Xatirchi t.	172	97,2 %	Tomdi t.	54	87,1 %
Navbahor t.	155	87,1 %	G‘ozg‘on sh.	35	85,4 %
Zarafshon sh.	114	82,6 %			

2023-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida





2023-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yilning mos davriga nisbatan quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: tashish va saqlashda 740 tadan 797 taga (o'sish 57 ta), axborot va aloqada 263 tadan 286 taga (o'sish 23 ta).

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	5 000	93,2 %	Nurota t.	1 585	98,3 %
Karmana t.	3 345	89,4 %	Uchquduq t.	988	106,4 %
Qiziltepa t.	3 039	98,3 %	Konimex t.	997	107,8 %
Xatirchi t.	2 738	96,9 %	Tomdi t.	621	109,1 %
Navbahor t.	2 463	100,9 %	G'ozg'on sh.	379	122,2 %
Zarafshon sh.	1 684	97,9 %			

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2023-yil aprel oyida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 1 449 ta bo'lib, shundan:


- mikrofirmalar va kichik korxonalar 1 445 ta;
- yirik korxonalar 4 tani tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	243	90,3 %	Uchquduq t.	106	87,6 %
Karmana t.	209	92,9 %	Nurota t.	95	100,0 %
Qiziltepa t.	188	87,4 %	Konimex t.	84	131,3 %
Xatirchi t.	170	97,7 %	Tomdi t.	52	89,7 %
Navbahor t.	154	87,5 %	G'ozg'on sh.	35	92,1 %
Zarafshon sh.	113	84,3 %			

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2023- yil 1- may holatiga 20 636 taga yetib, 2019- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 196,3 foizni tashkil etdi (10 514 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 38,2 foiz, sanoat – 16,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 13,1 foiz, qurilish – 7,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 6,3 foiz, tashish va saqlash – 3,8 foiz, axborot va aloqa – 1,3 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 1,4 foiz, boshqa turlari – 11,2 foiz.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	4 422	92,5 %	Nurota t.	1 401	97,7 %
Karmana t.	3 094	88,6 %	Uchquduq t.	870	106,7 %
Qiziltepa t.	2 807	98,0 %	Konimex t.	867	108,5 %
Xatirchi t.	2 449	96,7 %	Tomdi t.	539	109,6 %
Navbahor t.	2 287	101,0 %	G'ozg'on sh.	346	124,5 %
Zarafshon sh.	1 554	97,9 %			

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.


Shunda, 2023- yil aprel oyida savdo sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2022-yilning mos davriga nisbatan yashash va ovqatlanish – 81 tadan 112 taga (o'sish 31 taga), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 16 tadan 22 taga (o'sish 6 taga) ko'paydi.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	243	90,3 %	Uchquduq t.	105	86,8 %
Karmana t.	208	93,3 %	Nurota t.	95	100,0 %
Qiziltepa t.	188	87,4 %	Konimex t.	84	133,3 %
Xatirchi t.	170	97,7 %	Tomdi t.	51	87,9 %
Navbahor t.	154	87,5 %	G'ozg'on sh.	35	92,1 %
Zarafshon sh.	112	84,2 %			

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Navoiy shahrida (21,4 foiz), Karmana (15,0 foiz), Qiziltepa (13,6 foiz), Xatirchi (11,9 foiz) va Navbahor (11,1 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	4 386	92,5 %	Nurota t.	1 397	97,7 %
Karmana t.	3 075	88,7 %	Uchquduq t.	869	106,6 %
Qiziltepa t.	2 795	97,9 %	Konimex t.	858	108,6 %
Xatirchi t.	2 443	96,6 %	Tomdi t.	537	109,4 %
Navbahor t.	2 282	101,0 %	G'ozg'on sh.	344	125,1 %
Zarafshon sh.	1 544	97,8 %			

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2023-yil 1-may holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	239
Zarafshon sh.	51
G‘ozg‘on sh.	17
Konimex t.	280
Qiziltepa t.	331
Navbahor t.	413
Karmana t.	424
Nurota t.	379
Tomdi t.	179
Uchquduq t.	72
Xatirchi t.	343



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta’minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	728
Zarafshon sh.	330
G'ozg'on sh.	200
Konimex t.	99
Qiziltepa t.	376
Navbahor t.	311
Karmana t.	523
Nurota t.	259
Tomdi t.	89
Uchquduq t.	179
Xatirchi t.	448



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. So'nggi uch yil ichida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 108,0 foizni tashkil etdi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 15,5 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 91,2 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yil ning mos davriga nisbatan 94,9 foizni tashkil etdi), 6,7 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (97,5 foizni tashkil etdi), 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (113,0 foizni tashkil etdi) va 0,4 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (100,0 foizni tashkil etdi) tashki etgan.



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	446
Zarafshon sh.	135
G'ozg'on sh.	11
Konimex t.	39
Qiziltepa t.	216
Navbahor t.	158
Karmana t.	258
Nurota t.	107
Tomdi t.	30
Uchquduq t.	44
Xatirchi t.	89



O'zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 55,1 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,8 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 11,6 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,1 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 33,3 foiz ulushni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 76,2 foizni tashkil etdi.

178


Fuqarolik
obyektlarini qurish

510

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

845


Bino va
inshootlar qurish



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	1 710
Zarafshon sh.	500
G'ozg'on sh.	60
Konimex t.	202
Qiziltepa t.	1 299
Navbahor t.	1 094
Karmana t.	1 146
Nurota t.	338
Tomdi t.	168
Uchquduq t.	351
Xatirchi t.	1 021



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 100,2 foizi yoki 7 871 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 72,9 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda 92,0 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 18,1 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 109,2 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 9,0 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,1 foizni tashkil etdi.

710

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

1431

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5748

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	276
Zarafshon sh.	201
G'ozg'on sh.	5
Konimex t.	46
Qiziltepa t.	166
Navbahor t.	80
Karmana t.	196
Nurota t.	60
Tomdi t.	22
Uchquduq t.	88
Xatirchi t.	159



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan 129,8 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgo'ahlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2023- yil 1-may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 12,5 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 87,5 foiz ulushini tashkil etdi.

162

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 137


Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	91
Zarafshon sh.	26
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	4
Qiziltepa t.	34
Navbahor t.	17
Karmana t.	47
Nurota t.	7
Tomdi t.	2
Uchquduq t.	12
Xatirchi t.	43



2023- yil 1- may holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammlar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 15,4 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 133,3 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 36,0 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 92,0 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 48,6 foizini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 117,8 foizni tashkil etdi.



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	144
Zarafshon sh.	37
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	5
Qiziltepa t.	34
Navbahor t.	20
Karmana t.	45
Nurota t.	10
Tomdi t.	11
Uchquduq t.	12
Xatirchi t.	38



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 359 ta yoki 1,6 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

91,4 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2022-yilning mos davriga nisbatan 103,1 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 3,9 foizni tashkil etib, o'sish sur'ati 107,7 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 4,7 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 106,3 foizni tashkil etdi;

17

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

14




328

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	227
Zarafshon sh.	54
G'ozg'on sh.	3
Konimex t.	6
Qiziltepa t.	150
Navbahor t.	50
Karmana t.	195
Nurota t.	13
Tomdi t.	11
Uchquduq t.	11
Xatirchi t.	77



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,5 foiz ulushini tashkil etdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish sur'ati 108,3 foizni tashkil etdi;

ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishining o'sish sur'ati 160,7 foizni;


pochta va kuryerlik yo'nalishi 82,8 foizni tashkil etdi.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma‘lumot
2023- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma‘lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta‘minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	192	111,0 %	Nurota t.	66	103,1 %
Qiziltepa t.	171	106,2 %	Konimex t.	38	131,0 %
Karmana t.	139	95,2 %	Zarafshon sh.	36	70,6 %
Uchquduq t.	93	79,5 %	Tomdi t.	20	76,9 %
Navbahor t.	85	92,4 %	G'ozg'on sh.	3	33,3 %
Xatirchi t.	72	86,7 %			


2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- may holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 22 839 ta korxonalar va tashkilotlarining 11 567 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.


Sohalar kesimida o'sish sur'atlarining tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda – 110,6 foiz, axborot va aloqada – 107,1 foiz, savdoda – 100,9 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida


Navoiy sh.	2 982	95,6 %	Nurota t.	765	106,0 %
Qiziltepa t.	2 086	103,2 %	Uchquduq t.	759	108,3 %
Karmana t.	1 770	95,8 %	Konimex t.	418	109,7 %
Navbahor t.	1 028	104,7 %	Tomdi t.	273	106,2 %
Qiziltepa t.	2 086	103,2 %	G'ozg'on sh.	91	124,7 %
Xatirchi t.	827	102,6 %			

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish



Boshqa turlar

Xususiy korxonalar – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e'tirof etiladi. Xususiy korxonalar tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.

Xususiy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

2023- yil yanvar-aprel oyida sanoatda yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 2022- yilning mos davriga nisbatan 10 taga, yashash va ovqatlanishda 8 taga ko'paygan.


Hududlar kesimida

Xatirchi t.	80	121,2 %	Navoiy sh.	23	46,0 %
Zarafshon sh.	69	98,6 %	Karmana t.	19	100,0 %
Navbahor t.	51	108,5 %	Nurota t.	12	150,0 %
Konimex t.	42	140,0 %	Uchquduq t.	7	-
Tomdi t.	31	110,7 %	Qiziltepa t.	6	17,6 %
G'ozg'on sh.	30	108,5 %			


2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2023- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 5 180 tani tashkil etdi.


Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan ko'payishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (101,9 foiz), tashish va saqlash sohalari (124,0 foiz), shahar va tumanlar kesimida esa – Konimex (121,9 foiz), Tomdi (120,5 foiz), Navbahor (104,2 foiz), G'azg'on (129,0 foiz) shahar va tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Xatirchi t.	1 045	101,5 %	Nurota t.	343	83,7 %
Zarafshon sh.	830	96,6 %	Konimex t.	239	121,9 %
Navoiy sh.	714	82,1 %	G'ozg'on sh.	227	129,0 %
Navbahor t.	596	104,2 %	Tomdi t.	206	120,5 %
Karmana t.	506	70,6 %	Uchquduq t.	71	92,2 %
Qiziltepa t.	403	84,1 %			

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxon – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxon ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxon ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir.

Oilaviy korxon faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.


Hududlar kesimida

Karmana t.	51	87,9 %	Zarafshon sh.	8	61,5 %
Navoiy sh.	28	60,9 %	Uchquduq t.	6	150,0 %
Navbahor t.	18	48,6 %	Konimex t.	4	80,0 %
Xatirchi t.	18	75,0 %	G'ozg'on sh.	2	200,0 %
Nurota t.	16	80,0 %	Tomdi t.	1	33,3 %
Qiziltepa t.	10	50,0 %			


2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2023- yil 1- may holatiga ko'ra 2022- yilning mos davriga nisbatan 390 taga kamaygan.

Hududlar kesimida


Karmana t.	804	88,7 %	Konimex t.	193	94,6 %
Navoiy sh.	667	90,7 %	Zarafshon.	150	98,0 %
Navbahor t.	650	93,5 %	Tomdi t.	52	98,1 %
Xatirchi t.	541	82,6 %	Uchquduq t.	34	117,2 %
Qiziltepa t.	307	88,2 %	G'ozg'on sh.	26	96,3 %
Nurota t.	266	96,7 %			

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot


2023- yil yanvar-aprel holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg‘armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo‘linmalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin.


Hududlar kesimida

Navoiy sh.	5	166,7 %
Karmana t.	5	166,7 %
G‘ozg‘on sh.	1	50,0 %
Nurota t.	2	200,0 %


2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 2.0 barobarga oshdi.

Yetakchi o'rinni 36 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu respublikada xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 16,5 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Rossiya Federatsiyasi (ulushi 13,8 foiz), Eron Islom (6,4 foiz), Turkiya (ulushi 5,0 foiz), Qozog'iston (ulushi 2,8 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 3,7 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

Navoiy sh.	64	86,5 %	Xatirchi t.	9	100,0 %
Karmana t.	64	91,4 %	Navbahor t.	8	72,7 %
Nurota t.	15	65,2 %	Tomdi t.	8	133,3 %
Qiziltepa t.	15	107,1 %	Uchquduq t.	7	87,5 %
Zarafshon sh.	14	77,8 %	G'ozg'on sh.	4	100,0 %
Konimex t.	10	142,9 %			

2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, birlikda

O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo'yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o'sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O'zbekiston hukumati o'z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko'paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 116 tasi qo'shma korxonalar, 102 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

21	Navoiy shahri	43
7	Zarafshon shahri	7
2	G'ozg'on shahri	2
5	Konimex tumani	5
8	Qiziltepa tumani	7
4	Navbahor tumani	4
35	Karmana tumani	29
5	Nurota tumani	10
2	Tomdi tumani	6
6	Uchquduq tumani	1
7	Xatirchi tumani	2

2023- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

